

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.Mamadaliyeva**

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati ..... 208

**F.M.Mamadova**

Pedagogik madaniyat va kompetensiyani takomillashtirishning uslubiy jihatlari ..... 211

**Z.A.Boboyeva**

Uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili..... 214

**G.H.Axmedova**

Jorj Eliotning "Daniel deronda" romanining o'ziga xos jihatlari tahlili ..... 219

**F.A.Temirova**

Hsg misolida idiomatik lug'atni tuzish yondashuvlarining uslubiy tahlili: taqqoslash, xususiyatlari va tavsiyalari ..... 222

**G.Sh.Zununova**

Zamonaviy o'zbek turar joyining dastlabki manbalari haqidagi masalalar bo'yicha ..... 226

**F.K.Yusupjanova**

Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar ..... 231

**U.Abdullayeva**

Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash ..... 235

**Y.J.Mirzaaxmedova**

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi ..... 241

**D.A.Xolmatov**

Odil Yoqubov hikoyalarining janr xususiyatlari ..... 247

**Sh.K.Xujamberdiyeva**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari ..... 252

**I.I.Soliyev**

OTMlар boshqaruvini isloh qilish va unga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish zarurati ..... 257

**D.T.Tursunova**

Ijtimoiy faoliik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning gender xususiyatlari ..... 264

**D.D.Boymirzayeva**

Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish va unga yangicha printsiplarini joriy qilish zarurati ..... 270

**M.Norinov**

Bo'lajak texnik mutaxasislarning kasbiy kompetensiyasini multimedya vositalari asosida rivojlantirish omillari ..... 275

**F.A.Askarov**

Jismoniy yuklama to'g'risida umumiy tushuncha va jismoniy mashqlar yuklamasining pedagogik xususiyatlari ..... 279

**S.Y.Xushvaqtov, M.M.Jurayev, N.M.Qutlimuratov**

Mahalliy xomashyolar asosida olingan yangi ionitga yod ionlarining sorbsiya kinetikasi ..... 282

**U.A.Buriyeva**

Ingliz tilshunosligida to'liqsiz gaplarning shakllanishi ..... 287

**N.N.Teshayev**

Taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolik jamiyatni ma'naviy-mafkuraviy omillarini mustahkamlash amaliyoti ..... 291

**M.Saminjonov**

Turli sohalardagi qasamyodlarning rasmiy tuzilishi ..... 295

## IJTIMOIY FAOLLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI VA UNING GENDER XUSUSIYATLARI

### СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И ЕЕ ГЕНДЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

### THE CONTENT OF THE CONCEPT OF SOCIAL ACTIVITY AND ITS GENDER CHARACTERISTICS

**<sup>1</sup>Tursunova Dilnavoz To'lqin qizi**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

#### *Annotasiya*

*Mazkur maqolada bugungi kunda oliy ta'limgizlarning tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzARB ijtimoiy-iqtisodiy masala bo'lib, oliy ta'limgizlarning mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil etish va boshqarishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'limgizlarning davlat va nodavlat ta'limgizlarning rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlarini davlat tomonidan tartibga solinishi amalga oshirish vazifalari to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.*

#### *Annotasiya*

*В данной статье подготовка квалифицированных и конкурентоспособных кадров в системе высшего образования является актуальной социально-экономической задачей, а также внедрение новых подходов к организации и управлению образовательной деятельностью в системе высшего образования, подготовке кадров и непрерывному системы образования, выражена динамика развития и структурные изменения государственных и негосударственных образовательных учреждений.*

#### *Abstract*

*In this article, the training of qualified and competitive personnel in the higher education system is an urgent socio-economic issue, and the introduction of new approaches to the organization and management of educational activities in the higher education system, personnel training and continuous education system, the dynamics of development and structural changes of state and non-state educational institutions are expressed.*

**Kalit so'zlar:** oliy ta'limgizlarning tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzARB ijtimoiy-iqtisodiy masala bo'lib, oliy ta'limgizlarning mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil etish va boshqarishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'limgizlarning davlat va nodavlat ta'limgizlarning rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlarini davlat tomonidan tartibga solinishi amalga oshirish vazifalari to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

**Ключевые слова:** высшее образование, руководители-работники, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, непрерывное образование, задачи управления, совершенный человек, образовательные стандарты, гражданское общество, научно-методология.

**Key words:** higher education, leaders-employees, modern worldview, scientific-theoretical views, continuous education, management tasks, perfect person, educational standards, civil society, scientific-methodology.

#### KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jarayoniga jalb etish obyektiv zaruriyatga aylandi. Chunki bugun jamiyatning deyarli hech bir muammoni, hatto kelajagi buyuk davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal qilish mushkul. Kelajagi buyuk davlat qurish borasida biz, eng avvalo, yosh avlodga tayanamiz. Farzandni kamolga yetkazish oilaviy tarbiyani to'g'ri yo'lda qo'yishdan boshlanadi. Oiladagi o'g'il-qizlarimizning qanday insonlar bo'lib yetishishi hammadan burun ayollarimizga bog'liq. Shuning uchun ham, davlatimiz xotin-qizlarga katta e'tibor bermoqda. Jamiyatimizning turli sohalarida ularning faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlarni yaratilmoqda.

Shu yerda ishimizning mazmunini boyitish maqsadida, faollik, xotin-qizlarning ijtimoiy faollahsuvi, ijtimoiylashuv haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy faollik keng qamrovli kategoriya bo'li, ta'limgizlarning tizimida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish deganda, ularni barcha sohalarda faol bo'lishlvarini ta'minlash, bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, tashabbuskorliklarini oshirish ko'zda tutiladi.

Ijtimoiy faollik tushunchasining tarkibidagi faollikkka «O'zbek tilining izohli lug'ati»da mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko'rsatish, ishchanlik, ta'sirchanlik sifatida tariflanadi.[1] Shunday ekan, jamiyat insonning ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi muhit va unda ijtimoiy faolligini tarbiyalovchi tarbiya maktabi sanaladi. Yoshlarda ham faol fuqarolik

tamoyillarini shakllantirish va huquqiy savodxonlikni oshirish orqali mehnatsevarlik, ishbilarmonlik va ijtimoiy munosabatlarga mas'uliyatni shakllantirish mumkin bo'ladi.

"Faollik" - insonni tashqi muhitga intensiv ta'siri va maqsadga erishishdagi to'siq(qarama-qarshilik)larni yengib o'tishidir. Bu organizm va tashqi muhit, sub'yekt va tashqi-muhit, shaxslararo va ijtimoiy muhitdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratiladi. Psixologiyada "faollik" (ingl. activity, nems. tätigkeit) faoliyat, tashqi muhit bilan hayotiy munosabatni qo'llab-quvvatlash yoki uni o'zgartirishning manbasi [2]hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xotin-qizlarning ijtimoiy faollahuvi deganda ularning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda, mustaqil ishtirok etishlari, zarur bo'lganida, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga tashqaridan bo'ladigan bosimsiz ko'maklashishga intilishlari tushuniladi. Ijtimoiylashuv deganda – jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan psixologik mexanizm, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarini individ tomonidan o'zlashtirish jarayoni tushuniladi.[3] A) Tashqi faollik – bu tashqaridan va o'z ichki istak xohishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish va qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarmiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik. B) Ichki faollik – bu bir tomonдан u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinushi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinxaymaydigan, lekin faoliyat kechishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi". Tadqiqotchi Q.Turg'unov esa faollikka quyidagicha ta'rif berib o'tgan. "Faollik – shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o'zgartirishga qaratilgan muhim qobiliyati. Faollik ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lib, kishining faoliyati- mehnat, o'qish, ijtimoiy hayot, sport, ijod kabilarda yaqqol namoyon bo'lad.[3] Demak, faollik shaxsiy hayotda, guruhda, mahallada, tuman, viloyat, respublika, jamiyatda namoyon bo'ladi.

Tadqiqotch olim N.S.Leytes fikricha, "faollik" - shaxs xususiyatlari va psixik jarayonlarni xarakterlovchi omil hisoblanadi. Boshqa bir tadqiqotchi N.A.Bernshteyn tomonidan 1966-yilda "faollik prinsipi" tushunchasini kiritiladi. U "faollik"ni organizmning tiriklik faoliyatida ichki programmasining rolini belgilovchi omil deb ataydi. Yu.B.Gippenreyter esa, "faollik"ning asosini motiv tashkil etishini tushuntiradi. Yana bir olim B.Ananyev fikriga ko'ra, "faollik" - insonlarni boshqarish, insonni tashqi olamga munosabatining faol - faoliyat turlari bilan birga, jangovarlik, jismoniy faoliyat, bilish, muomaladir. Bunda "faollik" faoliyatning maxsus ko'rinishi yoki maxsus faoliyatga mos keladi.

Tadqiqotchi olima M.Raxmonova fikricha, ijtimoiy faollik - shaxsning atrof-muhit, jamiyatda kechayotgan jarayonlarga bo'lgan munosabatlarining integral tizimi bo'lib, uning individual-tipologik va umri davomida shakllanib boruvchi ijtimoiy shartlangan xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Shuningdek, uning fikricha, talabalar ijtimoiy faolligi o'z oldiga maqsad qo'yish, unga erishishda yuqori darajada kuch-g'ayrat, shijoat, jo'shqinlik bilan faoliyat ko'rsatish va mehnat qilishida namoyon bo'ladi. Chuqur bilim, yetarli malakaga egabo'lib, jamiyat hayotida o'ziga munosib joyni erkin egallash hamda yuqori natija bilan ishlashni ham talab etadi.[4]

Boshqa bir o'zbek olimi X.Tojiboyeva tarificha, "ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko'rinishini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etilgan. Ijtimoiy faollik me'yoriy va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir".[5]

Tadqiqotchi olim S.Rubinshteyn "faollik" - ichki sharoitni buzilishi(sinishi) tashqi ta'sirlar effektini yuzaga keltiradi degan prinsipni ilgari suradi. A.Leontyev qarashlarida "faollik" - tashqi muhit ichki muhitga ta'sir qiladi va bu bilan sub'yekt o'zini-o'zi o'zgartiradi. Faollik faoliyatni ichki,o'z-o'zidan harakatga keltiruvchi kuchi deb tushuntiriladi.

Boshqa bir olim D.Uznadze nazariyalarida esa, subyekt "faolligi" undagi mavjud ustanova kaga bog'liq deb tushuntiradi. V.A.Petrovskiy shaxs "faollik"ning haqiqiy sub'yekti deb hisoblaydi. V.A.Petrovskiy "faollik"ni harakatlanish, hayotiy faoliyat, sub'yektni hayotda yashab qolish imkoniyati, faoliyat rivojlanishining oliy formasi deb ataydi.

A.K.Abulxanova-Slavskaya fikricha, "faollik" va faoliyat o'rtasidagi farq shundaki, faoliyat ehtiyojlar predmetidan kelib chiqadi, "faollik" esa – faoliyatga bo'lgan ehtiyojdir. "Faollik" faoliyatni yuzaga keltiradi. Uning motivlari, maqsadlari, yo'nalganligi, xohishi faoliyatni amalga oshiradi va u insonda mavjud "uyqudagi potensial"ni qo'zg'atuvchi, harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

A.G.Asmolov fikriga ko'ra, "shaxs faolligi" u yoki bu ehtiyojning har qanday birinchi qo'zg'alishida yuzaga kelmaydi. "Shaxs faolligi" yuzaga kelishi uchun uni harakatga keltiruvchi qarama-qarshi faoliyat jarayoni, ya'ni "dvigateл"ni topishi kerak. Ana shu shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Yuqoridagi qarashlardan ko'rindaniki "faollik" muammosi jamiyatning turli sohalari taraqqiyotiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyat sifatida xilma xil qarashlar va sharoitlardan kelib chiqib o'rganilishi mumkin. [8]

Ilmiy adabiyotlarda faollik tushunchasi insonning turli tashkiliy darajalariga taalluqli ekanligi alohida ta'kidlab o'tiladi. Chunki aynan faollik sub'yekt uchun muhim bo'lgan aloqlar va munosabatlardan xususiyatida aks etadi. Ushbu aloqada bu endi nafaqat harakat balki o'zgarish yoki har qanday dinamika, murakkab kompleks va umumlashgan tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «faol so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

- 1) biror g'oyaviy harakat yoki ishga g'ayrat bilan, astoydil kirishadigan, ishchan;
- 2) biror jamoanining ijtimoiy hayoti, faoliyatida astoydil, berilib ishlaydigan, jamoatchi;
- 3) harakatchan, ko'p harakat qiladigan, - degan ma'nolarda keladi.

Zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, ijtimoiy qadriyat sifatida inson shaxsiga e'tiborning kuchayishi ta'lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashga nisbatan talablarni ham oshirmoqda, shuningdek, mutaxassislarning ijtimoiy bilim va malakalari hamda ijtimoiy ongingin davlat ijtimoiy siyosatining strategik yo'nalishlariga mos kelishini taqozo qilmoqda. Ijtimoiy tajribaning kengayishi va murakkablashishi, ma'lumotlarni qayta ishlash va olishning yangi shakllarining paydo bo'lishi bilan bog'liq holda mutaxassisning kompetentligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu tarkib ham bizningcha, ijtimoiy faollikni to'liq ifodalamaydi. Ijtimoiy-kasbiy faollik o'zida faqatgina mehnat va kasbiy ko'nikmalarni mujassamlashtirsa, ijtimoiy-axloqiy yetuklik, liderlik sifatlarini ifodalaydi.

O'z navbatida M.I.Lukyanova ham ijtimoiy faollikning tarkibiy qismlarini aniqlashga harakat qilgan:

- motivli-qadriyatli komponent ijtimoiy faoliyat motivlari, shakllangan motivatsiya, yutuqlarga erishishga intilish, ijtimoiy munosabatlarning qonun-qoidalarini o'zlashtirish, axloqiy me'yorlarga pozitiv munosabatda bo'lisch, jamoa tartibiga rioya qilishni o'z ichiga oladi;

- jarayonli mazmunli komponent o'z ichiga o'zi va o'zgalarning xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lisch imkonini beradigan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, o'zaro munosabatlar natijasini bashorat qilish, muloqot orqali atrofdagilarga ta'sir ko'rsatish, o'z oldiga maqsad qo'yish va uni amalga oshirish uchun intilish ko'nikmalarini qamrab oladi;

- hissiy-irodaviy komponent o'z ichiga yechimlarni tanlash, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish layoqatiga ega bo'lisch, o'z zimmasiga mas'uliyat olishga tayyorlik, o'ziga ishonch va qat'iyatli bo'lisch kabi sifatlarni birlashtiradi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Arabiston yarimorolida islomgacha bo'lgan davr, ya'ni johiliyat davrida qiz bolaga nisbatan kamsituvchi, achinarli munosabatlar bo'lganligi haqida keltirib o'tilgan. Masalan, johiliyat davrida 4-5 yoshga to'lgan qiz bolalarni tiriklayin ko'mib, u keltiradigan balolardan qutuldum, deb ishonilar edi. Islom dini Movarounnahrga kirib kelgandan so'ng bu kabi insonga nisbatan beshafqatlarcha bo'lgan munosabatga barham berilgan. Hozirgi kunda bu kabi ayanchli odatlar kuzatilmasada, qizlarning ta'lim olish, ya'ni oddiy maktabga borish imkoniyatlari cheklangan davlatlar ham yo'q emas.

O'tmishdan ma'lumki, sharq xalqlarida tarbiya borasida ulkan ma'naviy meros yaratilgan. Bu meros asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib sayqallanib, yosh avlod barkamolligini ta'minlash uchun xizmat qilib kelmoqda. Mana shunday an'analarimizdan biri ayollar, onalar, xotin-qizlar tarbiyasidagi boy pedagogik tajriba hisoblanib, qizlar tarbiyalayotgan oilalar millat kelajagiga mas'ul eng katta tarbiyachilar hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xotin-qizlarning fazilatlari, ijtimoiy sifatlari, jamiyatdagi o'rni, avvalo, oilada shakllanadi.

Yurtimizda o'zbek qizlarning ko'rkm xulqli bo'lishi milliy tarbiyaning asosiy talablaridan birini tashkil qiladi. Yaxshi xulq qizlarning faqat axloq-odob, go'zallik, mehnat va boshqa tarbiyasining nazariy asosini emas, balki ana shu tarbiyalanganlik darajasini o'z shaxsiy hayotida qo'llashi bo'lib hisoblanadi. Bunda esa eng katta mas'uliyat ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, qiz bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat bu

onadir. Ota ko'pchilik xalqlarda oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta'minlash qolaversa, oilaning xo'jalik ishlari bilan band bo'ladi. Bu o'zbek oilalarining tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan an'anadir. Shunga ko'ra bola bilan ko'proq ona birga bo'ladi. Xalqimizda "Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi" degan naql bejiz aytilmagan. Ammo, keyingi vaqtarda jamiyatimizdagi ba'zi oilalarda bola tarbiyasi borasida salbiy holatlarni ham uchratish mumkin. Masalaning pedagogik oqibatlari qaralsa, bu ayrim ota-onalarning farzandlari bemehrligidan nolishida namoyon bo'ladi. Masalan, farzandlarning yomon yo'lga kirib ketganligiga munosabatda ko'pchilik ota-onalarning fikrlari bir xil: "o'z bilganidan qolmaydi, hurmat qilishni bilmaydi". Buning ijtimoiy sabablari sifatida ota-onalarning bola tarbiyasiga e'tiborsizligida namoyon bo'ladi. Ota-onsa, qarindosh urug'lari bor bolalar ham "Mehribonlik uyi"ga topshirilmoqda. Bu esa, "O'nta bo'lsa o'rni boshqa" degan tamoyilga amal qilib kelgan ota-bobolarimizning qadriyatlariga ziddir.

### NATIJALAR

Ayniqsa, qizlar tarbiyasining izdan chiqishi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. O'zbek qizlarini tarbiyalashda oila hayotining, millat hayotining davomiyligini ta'minlashda bilimlar, tajribalar qizlarga o'tmas ekan, bilim, ko'nikma va malakalar ajdoddardan avlodlarga o'tkazilmas ekan, oila hayoti ham, ijtimoiy hayat ham degradatsiya(inqiroz)ga uchray boradi. Shu bois, onalarning qizlarga beradigan tarbiyalari, tajribalari oila va ijtimoiy hayatda o'z o'nilarini topishning zaruriy ehtiyojlar talabi bo'lib kelgan hamda shunday bo'lib qoladi. Agar qizlar ilk yoshlardan boshlab, ijtimoiy faol shaxs sifatlarini egallasa, o'z navbatida komila onalar, barkamol shaxslar bo'lib yetishadilar. Shunday ekan, aslida har bir xalqning, taraqqiy etishida ijtimoiy faol sifatlari qizlarning tarbiyalariga bog'liq, deb xulosa qilish mumkin.

Ta'lif-tarbiya jarayonidagi differensiatsiyalashtirilgan (tabaqalashtirilgan) qizlar tarbiyasining etnopedagogik asoslarini o'rganish natijalari muammoning turli qirralarini qayd qilish imkonini beradi. Uzoq vaqt davomida pedagogika o'zining milliy o'zaklaridan ayro tushib, neytral, nomilliy bo'lib keldi. Bu esa tarbiya jarayoni sifatiga va shu bilan bog'liq qiyinchiliklarni paydo bo'lishiga olib keldi hamda bu muammolar hozir ham o'z asoratlarini ko'rsatmoqda.

Talaba xotin-qizlarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirish muammosini psixologik va pedagogik hodisa sifatida o'rganish qadimgi davrlardan boshlandi. Talaba xotin-qizlardagi ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirish retrospektivasi tarbiya va ta'lifning quyidagi xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi: ko'plab tarixiy davrlarda asosiy e'tibor o'g'il bolalarni tarbiyalashga qaratilgan; ayol faqat oila va uy ro'zg'or ishlarini o'rganishi mumkin; qizlarga tikuvchilik, kashta tikish, to'rt qishni o'rgatish kerak.

Qizlarda ijtimoiy shaxs sifatlari va ijodkorlikni shakllantirish hamda tarbiyalash tajribasiga Zahiriddin Muhammad Bobur va uning farzandlari yaqqol misol bo'la oladi. Hindistonning mashhur siyosatchisi va tarixchisi Javohirla'l Neruning aytishicha: "Bobur san'at va adabiyotning ulkan homysi, Boburiylar saroyi juda shukuhli, boy va misli ko'rilmagan saroy edi. Albatta, bunday saroy va bunday madaniyat o'zidan-o'zi qurilmaydi. Shoh va shahzodalar olim, shoir hamda madaniyatli kishilar bo'lmasalar, ilmu madaniyat rivojiga u qadar parvo qilmasliklari mumkin. Ammo Bobur, uning to'rt o'g'li va bir qizi — Humoyun, Komron, Askariy, Hindol va Gulbadan begin ham tarixda chuqur iz qoldirgan shoir, tarixchi, ilmu san'atni yaxshi o'rganib, o'zlashtirgan kishilar edilar. Ulardan bo'lgan farzandlarning barchasi ham ota-bobolarining izidan borib, atoqli shoir, adib va olimlar sifatida ilmu san'at rivojiga katta hissa qo'shib keldilar". Gulbadan begin: Boburning bu fazilatli, bilimli qizi Kobulda 1527 yilda Dildor beginidan tug'ildi, ammo ukasi Hindol Mirzodek Mohim begin tarbiyasi ostida bo'ldi. U Humoyun Mirzoga atab "Humoyunnoma"ni yozdi. U to'rt yoshida otasidan abadiy ayrilgan bo'lsa-da, otasining tarixchilik iste'dodini meros oldi. "Humoyunnoma" juda ixchamligi, ravon uslubda yozilgani hamda fasohat va balog'at avjida ekanligini ko'plab tazkirachilar, tarixchi olimlar ta'kid etganlar. Boburshohning nabiralari va ularning farzandlari ham she'riy iste'dodni Boburshohdan meros olib, she'ru adabiyot an'analarini ko'ragoniyalar oilasida davom ettirdilar. Misol uchun, Komronning qizi Gulruh begin, Avrangzebning qizi Zebunniso begin va boshqalarning nomi, asarlari ayrim tazkiralarda zikr etilgan. Demak, Boburshoh nafaqat buyuk bir imperiyani, eng shavkatli bir madaniy davrni o'z farzandlariga meros qilib qoldirmadi, balki shoirlik va tarixchilik iste'dodini, ilmparvarlik hamda san'atga qiziqish kabi olyi xislatlarni ham qoldirib, tarixda boburiylar(ko'ragoniyalar) nomini mangulikka erishtirdi. Boburiylar davrida ham ta'lif-tarbiya, odob-axloq masalasiga alohida yondashuv sifatida qaralgan.

Buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat asarlarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va ularni ijtimoiy himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Alisher Navoiy ayollarni ulug'lashga, ularning oiladagi va jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga bag'ishlangan asarlarida «Yer yuzida o'zining aql-zakovati, mard va donoligi, go'zal husni, andisha va sabr-toqati, mehr va sadoqati bilan dunyoga dong taratgan ayollar juda ko'p» – deb, alohida ta'kidlaydi.

### MUHOKAMA

Mamlakatimizning buyuk tarixida o'zining jasorati va matonati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan o'chmas nom qoldirgan To'maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebunniso, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin, Zulfiya va boshqa yuzlab ayollarimizni xalqimiz hamisha ehtirom bilan tilga oladi. Ularning o'ziga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlari bugun ham xotin-qizlarimiz siyosida davom etishini ta'minlash, jahon madaniyati tamadduni xazinasiga munosib hissa qo'shgan buyuk ayollarimizning hayoti va faoliyatini yoshlarmizga namuna qilib ko'rsatish, salbiy holatlarning oldini olish, jamiyatdagi mayjud muammolarga yechim topish, xotin-qizlarimiz o'z hayotidan mamnun va baxtiyor bo'lib yashashlarini ta'minlashning muhim shartidir.

Har bir sohada olib borilayotgan chuqur islohotlarga innovation yondashuv zaruriyati vujudga kelgan bugungi kunning eng asosiy talabi xalqning dardi bilan yashash, xotin-qizlarning og'irini yengil qilish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning barqarorligini ta'minlashga erishishdir. Chunki, har bir ayolning ortida uning oilasi, farzandlari turadi. Shunday ekan, bizning yurtimizda har bir ayolning hayotdan rozi bo'lib, baxtli yashashi davlatimiz e'tiborida turgan eng muhim masaladir.

O'zbek xotin-qizlarining zamonaviy va milliy fazilatlari, ularning ijtimoiy hayotdagi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o'rni masalalari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor X.O.Shayxova ilmiy izlanishlarida markaziy o'rinda turadi. Uning fikricha, xotin-qizlarning tengligi va ozodligini to'la ro'yobga chiqarish, yangicha tafakkur, erkin fikrlesh va dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy hayotda ayolga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish, Sharq ayoliga xos momo meros, axloqiy go'zal qadriyat va fazilatlarni keng kamol toptirish zarurati mustaqil yurtimizda davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi. O'zbek ayollarining madaniy va ma'naviy, huquqiy-axloqiy, intellektual salohiyatini oshirish, oiladagi onalik burchi va mas'uliyatini milliy, umuminsoniy nuqtai nazardan chuqur anglab yetish va amaliyotga riosa qilishga odatlantirish mustaqillik tamoyilining asosiy vazifasidir".

Ayollarni ijtimoiy faolligini oshirish ularning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Ma'naviy qadriylarsiz jamiyat va davlatni boshqarib bo'lmaydi. X.O.Shayxova xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini keng, har tomonlama tahlil qiladi. Uning ilmiy asarlarida ayollar mehnat, oila, davlat boshqaruvi, ilm-fan, maorif va ma'rifat, axloqiy qadriyatlar, mahalla, barkamol avlodni voyaga yetkazish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, biznes va tadbirkorlik kabi rang-barang sohalar bilan bog'lab tadqiq etiladi. Uning asosiy diqqati ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini inson muammoasi, uning qadri nuqtai nazardan o'rganishga qaratilgan.

Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan talaba-qizlarni mutaxassislik asosida tayyorlash va ular yordamida mamlakatimiz xotin-qizlari salohiyatidan jamiyatimiz ma'naviyati va moddiy farovonligini yanada oshirishning falsafiy-ijtimoiy xususiyatlari hamda pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari mavjuddir.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatlari yondashuvlar asosidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo'yicha tavsiflanadi. Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sohasi hamda yoshlari ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Insoniyat hozirgi global rivojlanishni boshdan kechirayotgan bir davrda taraqqiyotga raqamli texnologiyalar jadal tadbiq etilayotganligi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida intellektual yetuk, zamon bilan hamnafas, mustaqil fikrli, o'z iste'dodini namoyon etishga qodir, innovation yondoshuvni o'zida mujassam etgan faol kadrlarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Ana shunday kadrlarga bo'lgan talab, ijtimoiy soha vakillari, xususan psixologlar oldiga kadrlarni tanlash, tayyorlash va tavsiya etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish, aniqtaklif va tavsiyalarni ishlab chiqishvazifasini qo'ymoqda. Albatta, har qaysi jamiyatni ijtimoiylashuvida inson omilini

dolzarbliгиuning kelajagini belgilaydi. Ayniqsa, bu kadrlar masalasida o‘zini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, kadrlar ishini to‘g’ri tashkil etilganligi, faolligini shakllanganligi, to‘g’ri yo‘nalganligi va o‘zini anglaganligida ko‘rinadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, ijtimoiy faoliyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Ijtimoiy faoliyat keng tushuncha bo‘lib, u “har bir kishining hayotdagи, turmushdagi tutgan o‘rni, ijtimoiy voqelik, unda yuz beradigan o‘zgarish, yangiliklarga munosabati, shuningdek uning yaratuvchilik borasidagi ishtiroki kabilardagi faolligini anglatadi”. Shaxsda ijtimoiy faoliytkni shakllantirish va tarbiyalashning omillarini anglash esa pedagogika, psixologiya va sosiologiya fanlarining vazifalaridan hisoblanadi. Shuningdek, “faoliyat hamisha mavjud holatni o‘zgartirish asosida yaxshilashni ko‘zda tutadi. Agar faoliyat tushunchasi mohiyatini chuqr tahlil qiladigan bo‘lsak, bunda har bir shaxsning ijtimoiy borliqqa bo‘lgan faol munosabati yoki uni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan harakatni amalga oshirish jarayoni tushuniladi”. Ushbu jarayondagi xotin-qizlarning qat’iyati, maqsadliligi, irodaliligi, tashabbuskorligi, harakatchanligi, har bir holatni puxta hisobga oluvchilik xususiyatlari bilan ishtirok etishi faoliytkni ta’minalashda muhim o‘rin tutadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlar asosida oliy ta’lim tizimida talaba-qizlar ijtimoiy faoliyti rivojlantirishning ilmiy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish va oliy ta’lim tizimida talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish asosida innovation tarbiya modelini yaratish mumkin bo‘ladi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Головин С.Ю. Словарь практического психолога. 1998. Минск. ХАРВЕСТ. С.14
2. Маънавият. Асосий тушунчалар изоҳли луғати. “Ф.Фулом”. -Т.: 2016. -Б. 82-85.
3. Каримова В.М., Акрамова Ф.А. Психология. –Т.: Ўқитувчи.2000. Б- 48
4. Л.Д.Столяренко. Основы психологии. «Феникс» Ростов-на-Дону. 2000 г., С. 75-79
5. МитинаО.В. «Женщина в обществе. Женское гендерное поведение в социальном и кросскультурном аспектах». М.: Общественные науки и современность. №3, 1999.с.179-180
6. Щелокова Е.Г. авто.реф диссертации на тему «Ценностно-смысловое содержание карьерной направленности». ФГБОУВПОЮжно-УральскийГосударственныйУниверситет(НИУ). Челябинск. 2012, с.5
7. Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность. М.: 2005
8. Бобохонов Ш., Ирисов А. Ҳадис илммининг пешволари. –Т.: 1992. –Б. 34-67
9. Usanov Sh., Sh.Axmedova. Qizlar tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari. O‘quv-uslubiy qo’llanma. – Samarcand: SamDU nashri, 2018. – В. 4
10. Тошибоеva X. Ўқувчи-ёшлар ижтимоий фаолигини оширишнинг педагогик тизими. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент.: ТДПУ. 2018. –Б. 10.
11. Леонтьев А.Н. Деятельность, Сознание, Личность. / А.Н. Леонтьев. – М., 2004. – 352 с.